



1st EduVision: Global Innovations in Learning and Teaching Conference

Dec 12, 2025.

“Turkiy Guliston Yoxud Axloq” Asarida Ta’lim-Tarbiya Masalasi

Egamova Shohida Djalilovna

Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
egamovashohida2@gmail.com

Abdullayeva Muhayyoxon Safiyullo qizi

Oriental universiteti, Pedagogika va psixologiya, ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Buyuk allomalarimizning ilmiy-ma’naviy asarlari insoniyatni ezgu ishlar va to’g’ri yo’lga yurishga boshlovchi ezgu chorlovdur. Qaysi davr bo’lmasin asarlaridagi dolzarblik o’z mazmun-mohiyatini yo’qotmaydi. Bil’aks, el-yurt taraqqiyoti, yoshlar kamoloti uchun tengsiz dasturulamal vazifasini o’tab boraveradi. Ushbu maqolada ma’rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari va uning milliy qadriyatlardan biri hisoblanmish ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Abdulla Avloniy, ajdodlar merosi, intellektual salohiyat, milliy qadriyatlar, tarbiyaning zamoni, ma’rifat, oila, maktab, ta’lim-tarbiya, odob-axloq, xulq, intizom, Vatan.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida ortirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko’nikmasini o’zgalarga berish jarayoni. Bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” [6] degan chuqur ma’noli so’zlarini yodga olish mumkin. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so’zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko’ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, o’zbek xalqi azaldan o’zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo’yish, ularning qornini to’q, ustini but qilish o’z yo’li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog’idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko’pgina hayotiy misollarda ko’rish mumkin [7].

“Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan [4]”, deya ta’kidladi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

2020 -yil 18-oktabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag’on qurbonlarining merosini yanada chuqur o’rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” Farmoyishi qabul qilindi. Ushbu hujjat shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega bo’lib, avvalo ajdodlarimizning xotirasiga bo’lgan yuksak hurmatni bildiradi.

Zero, mustabid tuzum tomonidan qatag’on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalari, oddiy kasb egasi bo’lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotirasini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Darhaqiqat, ta’lim-tarbiya haqida so’z borar ekan millatparvar, ma’rifat fidoyilaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari haqida to’xtalib o’tmasdan iloji yoq.

Abdulla Avloniy bu asarini yaratishda xalq pedagogikasiga tayanadi. Adib insonlarni xulq-xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo’ladi: biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. U bunday deydi:

“Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurg‘a odat qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub “yaxshi xulq”, agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlar ishlaydurgan bo‘lub ketsa, yomonlikg‘a tavsif bo‘lub “yomon xulq” atalur [6].

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasiga alohida e‘tibor berishni talab etadi va tarbiyaning rolini to‘g‘ri belgilaydi. “agar bir kishi yoshligida nafi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lub o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitur”,-deydi. Adibning nuqtai nazariga qaraganda, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi insonlar g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy insoniy fazilatlarini, axloqni o‘zida mujassam qilgan insonlar yoshlarga yaxshi ta‘sir etadi va ularni mehr-muhabbatli, shafqatli, sofdil va maqbul bo‘lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi.

Abdulla Avloniy ushbu asarida tarbiya haqida gapirar ekan “Tarbiya” sarlavhasi ostida tarbiya turlari haqida fikr yuritadi: 1. “Tarbiyaning zamoni. 2. “Badan tarbiyasi”. 3. “Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi”. Farzandning tarbiyalashda bu to‘rt masala juda muhim masala ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Bolaning tarbiyasida bola yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko‘rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham nazardan chetda qoldirmaydi.

Adibning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma‘rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur”.

“Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur” [6].

Muallif bolani sog‘lom qilib tarbiyalashda dastavval ota-onalarga murojaat qilsa, bolaning fikrlash qobiliyatini to‘g‘ri shakllantirishda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e‘tibor qaratadi. Adib bolaning fikriy taraqqiyotini ota-onaga emas balki o‘qituvchi va ustozlar zimmasiga yuklaydi. Jumladan, “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdir” [6].

Ayni paytda muallim ta‘lim bilan tarbiyaning bir-biriga bog‘liq ekanini ham ta‘kidlab o‘tadi. “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tandur” deydi.

“Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur” [6].

Abdulla Avloniy o‘z davrida yosh avlodni chin insoniy axloqiy hislatlar egasi bo‘lishini istadi. U ta‘lim va tarbiya, ilm va ma‘rifat olish yo‘li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo‘lishini orzu qildi.

“Tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zahnimizi ravshanlandurmak lozim ekan”.

Abdulla Avloniy ta‘lim va tarbiya haqida qayg‘urar ekan, o‘zining pedagogik qarashlaridan kelib chiqqan holda, ma‘rifatni jaholatga qarshi qo‘yadi: “ Ilm va ma‘rifat sohiblari fazlu kalomlari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo johillar esa bir narsaning mohiyatini mushohada qilurg‘a aql va farosatlari yetmas. Chunki jahil xudbin va zohirparastdan iboratdur”.

Ma‘rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy fikricha olamning yaratilishidan maqsad insondir. Inson butun borliqning ko‘rki va sharafidir. Inson o‘z go‘zalligi va murakkabligi bilan yer yuzidagi barcha maxluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak: inson uning sohibidir. Chunki insonning aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi, ilmi tufayli dunyoni boshqaradi.

Bir so‘z bilan aytganda, buyuk allomalarimizning ilmiy-ma‘naviy asarlari insoniyatni ezgu ishlar va to‘g‘ri yo‘lga yurishga boshlovchi ezgu chorlovdur. Qaysi davr bo‘lmasin asarlaridagi dolzarblik o‘z mazmun-mohiyatini yo‘qotmaydi. Bil‘aks, el-yurt taraqqiyoti, yoshlar kamoloti uchun tengsiz dasturulamal vazifasini o‘tab boraveradi. Shuning uchun ushbu nodir meroslarni o‘qib-o‘rganishimiz, chuqur tadqiq etib, dunyo hamjamiyatiga keng targ‘ib qilish, kelajak avlodlarga yetkazish, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar sifatida xayrli amallarni bajarish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir [1].

Adabiyotlar

1. Mirziyoyevning Sh.M. O‘qituvchilar va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil, 30-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoyishi. 2020-yil, 18-oktabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tar'g'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. 2020, 30-sentabr.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan. <https://www.standart.uz/ru/news/view>.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: "O'qituvchi", 1992.-160-b.
7. Mo'minova D. Yosh avlodga e'tibor – tarbiyaga roydevor. Материалы XIX Международная научно-практическая интернет-конференция. 30–31 октября, 2015.
8. Xo'jayeva D. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta'limi, 2003, 3-son.- B.71.